

1
2014

XALQ TA'LIMI

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
XALQ TA'LIMI VAZIRLIGINING
ILMIY-METODIK JURNALI

PUBLIC EDUCATION
SCIENTIFIC-METHODICAL MAGAZINE
MINISTRIES OF PUBLIC EDUCATION OF THE
REPUBLIC OF UZBEKISTAN



TAHRIRIYAT

“Xalq talimi” jurnali yangi bosqich sari	4
--	---

TA'LIM VA TARBIYA NAZARIYASI

Farxod To'rabekov, Umida Nurumbetova. Mehnat ta'limi o'qituvchisining kasbiy faoliyat jarayonida umumiy va xususiy vazifalari	6
Zarnigor Baxodirova. O'quvchilarda iqtisodiy bilimlarni shakllantirish va axborot texnologiyalaridan foydalanish	11

TA'LIMDA SOTSIOLOGIYA VA STATISTIKA

Dilnoza Begmatova. Kasbiy ijtimoiylashuvni ta'minlashning xususiyatlari	15
--	----

TA'LIM SIFATI: MAZMUN VA MOHIYAT

Muradulla Rayemov, Aziza Usakova. Matematik kompetentlik – kasbiy tayyorgarlik sifatini belgilovchi omil	20
---	----

ZAMONAVIY TA'LIM TEXNOLOGIYALARI

Dildora Xolmatova. Fizika darslarida olimlarning ilmiy g'oyalaridan foydalanishning “loyihali ta'lim” texnologiyasi	23
Murod Usmonov. Multimedia texnologiyalari asosida interaktiv elektron o'quv kurslarini yaratish va qo'llash tamoyillari	28
Ozoda Rahmonova. Yangi pedagogik texnologiyalarga asoslangan darslik	33
Toshbibi Norboboyeva, Ibrohim Azimov, Sabohat Razzoqova. Umumiy o'rta ta'lim maktablarida “Qirqbo'g'imlar” mavzusini o'qitishda pedagogik texnologiyalardan foydalanish	37
Feruza Zakirova, Nafisa Xaytullayeva. Web texnologiyalar yordamida onlayn test yaratish	42
Dilbar Shayzakova. Kimyo fanini o'qitishni zamonaviy ta'lim texnologiyalari asosida tashkil etish	48
Shalola Nurmatova. Interfaol usullar – o'quvchilarning intellektual qobiliyatini rivojlantirish omili	52
Rayhonoy G'oyibboyeva. Ingliz tili darslarida o'yinlardan foydalanish	55
Havasxon Shokirova. Ta'lim jarayonida o'qituvchi shaxsiga ta'sir qiluvchi omillar	59

JISMONIY TARBIYA VA SPORT

Tal'at Usmonxo'jayev, Ravshan Latipov, Nigora Azamatova. Maktab o'quvchilarining jismoniy tayyorgarligi va harakat faolligini oshirishda milliy harakatli o'yinlarning roli	63
---	----

TA'LIM VA TARBIYA METODIKASI

A'zamjon Valiyev, Saidkarim Saydaliyev, Barchinoy Valiyeva. Umumiy o'rta ta'lim maktablarida chizmachilik fanidan olimpiada o'tkazishga oid tavsiyalar	66
Abdunazar Jo'rayev. Chet tillarni o'qitishda kommunikativ leksik mashqlar tizimi ...	71

Feruza ZAKIROVA,

Toshkent Axborot texnologiyalari universiteti kasbiy ta'lim fakulteti dekani, p.f.d.

Nafisa XAYTULLAYEVA,

Nizomiy nomidagi TDPU katta ilmiy xodim-izlanuvchisi

WEB TEXNOLOGIYALAR YORDAMIDA ONLAYN TEST YARATISH

Annotatsiya

Mazkur maqolada o'quvchilarda mustaqil ta'lim, barcha foydalanuvchilar bilan o'zaro munosabatga kirisha olish malakalarini tarkib toptirish, umuman, ta'lim samaradorligini oshirishda mediata'lim texnologiyalaridan foydalanishning zarurligi ilmiy asoslangan. "Multimedia ta'limi", "ochiq ta'lim" atamaları, ularning mutanosibligi ochib berilgan.

Kalit so'zlar: kompyuter telekommunikatsiyasi, multimedia, ochiq ta'lim, o'z-o'zini rivojlantirish, hamkorlikdagi faoliyat, interfaollik, o'rgatuvchi dasturlar, kompyuter va inson muloqoti, didaktik resurs, o'z-o'zini nazorat qilish.

В данной статье обоснована необходимость использования технологий медиаобучения, способствующих формированию у обучающихся навыков самообразования, установлению взаимоотношений со всеми пользователями и в целом повышению эффективности обучения; раскрыто значение терминов "мультимедийное обучение", "открытое образование", показана их идентичность.

Ключевые слова: компьютерные телекоммуникации, мультимедиа, открытое образование, саморазвитие, взаимодействие, интерактивность, обучающие программы, диалог человека и компьютера, дидактический ресурс, самоконтроль.

The necessity of the use of technologies of mediaeducating is reasonable in this article. Assisting forming at student skills of self-education, to establishment of mutual relations with all users and on the whole to the increase of efficiency of educating; the value of terms is exposed "multimedia educating", "open education", their identity is shown.

Key words: computer telecommunications, multimedia, open education, саморазвитие, cooperation, interactiveness, teaching programs, dialogue of man and computer, didactic resource, self-control.

Mamlakatimizda mustaqillikning dastlabki yillaridanoq ta'lim tizimini isloh qilish masalasiga davlat siyosati darajasida e'tibor qaratilib, o'g'il-qizlarimizning jahon andozalariga mos sharoitlarda bilim olishini, jismoniy va ma'naviy jihatdan yetuk insonlar bo'lib kamolga yetishini ta'minlash, qobiliyat hamda iqtidorini yuzaga chiqarish, qalbida yurtga sadoqat va fidoyilik tuyg'ularini shakllantirish borasida amalga oshirilayotgan beqiyos sa'y-harakatlar zahirida ham ana shu ezgu maqsad mujassamdir.

Xususan, mustaqil taraqqiyot yo'lidan borayotgan mamlakatimizning uzluksiz ta'lim tizimini isloh qilish, axborot texnologiyalarini joriy etish va ta'lim samaradorligini oshirishga katta e'tibor qaratildi. Ta'lim samaradorligini oshirish uchun Kadrlar tayyorlash milliy dasturida amalga oshiriladigan vazifalardan biri – ta'lim muassasalarining moddiy texnika

va axborot bazasini mustahkamlashni davom ettirish, o'quv-tarbiya jarayonini yuqori sifatli o'quv adabiyotlari va ilg'or pedagogik texnologiyalar bilan ta'minlash, uzluksiz ta'lim tizimini axborotlashtirishni amalga oshirish zarur ekanligi ta'kidlangan. Shuningdek, oliy va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'lim tizimi oldida turgan dolzarb vazifalardan biri – ta'lim muassasalari orasida ta'lim jarayonini bosqichma-bosqich, ya'ni uzluksiz ravishda tashkil etish, o'qitishda pedagogik texnologiyalar va yutuqlardan keng foydalanish, ularni o'quv jarayoniga doimiy ravishda joriy qilib borish hamda rivojlangan davlatlarning kasbiy ta'lim tajribalarini mamlakatimiz ta'lim tizimiga joriy etish hisoblanadi.

Ta'lim-tarbiya jarayonida zamonaviy pedagogik va axborot texnologiyalardan o'z o'rnida foydalanish o'quvchilarning bilim va tahsil olishga bo'lgan qiziqishlarini orttiradi, bilish faoliyatini faollashtiradi, ta'lim-tarbiya jarayonining salmog'i yuqori darajada bo'lmog'iga imkon yaratadi. Bu esa, oliy ta'lim muassasalarida bo'lajak o'qituvchilarni tayyorlash tizimiga yangicha nigoj va mas'uliyat bilan qarash zarurligini ko'rsatadi.

O'quvchi-talaba bilimi, malaka va mahoratini tekshirish va baholash ta'lim jarayonining muhim tuzilishi komponentidir va butun o'quv yili davomida tizimli izchillik va ta'limning puxtaligi prinsiplariga muvofiq olib borilishi shart.

"Informatika" fanini o'qitishning samaradorligi, o'quvchilarning fanga bo'lgan qiziqishining ortishi ko'p jihatdan o'qitishning test usullarini qo'llashga ham bog'liqdir.

Test birinchi bor 1864-yilda Buyuk Britaniyada J.Fisher tomonidan o'qituvchilarning bilim darajasini tekshirish uchun qo'llanilgan. Test sinovlari nazariy asoslarini keyinchalik ingliz psixologi F.Gamelton ishlab chiqdi. Test sinovlarini dastlab psixologiya fanlari doirasida rivojlandi. XX asr boshida esa test sinovlarini ishlab chiqishda psixologik va pedagogik yo'nalishlar bir-biridan mustaqil ajrala boshladi. Pedagogik test sinovlari esa birinchi marta amerikalik psixolog E.Toridayk tomonidan ishlab chiqildi. Psixologiya va pedagogika test sinovlarining rivojlanishi bilan matematik metodlar ham qo'llana boshlandi. Bunday metodlar, o'z navbatida, testlarni ishlab chiqishga ijobiy ta'sir ko'rsatdi.

XIX asr oxiri XX asr boshlarida test sinovlariga qiziqish o'quv qobiliyatlarini baholash vositasi sifatida qarash ancha kuchaydi. Aynan shu davrdan boshlab test sinovlari ikki asosiy yo'nalish: aqliy (intellektual) rivojlanish darajasini aniqlash testlarini yaratish va qo'llash hamda o'quvchilarning o'qish qobiliyatlarini va bilimlarini baholashga mo'ljallangan pedagogik testlarni yaratish va qo'llash sohalari rivojlana boshladi. O'zbekiston ta'lim tizimida bilimni test usulida baholashga, nazorat qilishga davlat siyosati maqomining berilishi ana shunday yutuqlardan biri bo'lib hisoblandi. Pedagogik testlarning keng miqyosda, birinchi marta o'rta ma'lumot yakunida, oliy o'quv yurtiga kiruvchilarni qabul qilishda qo'llanildi.

Pedagogik testlarning zamonaviy nazariyasi pedagogika, psixologiya, mantiq, matematik statistika, matematika, informatika, kibernetika va bir qator fanlarning tutash chegaralarida rivojlanmoqda. Shuningdek, testlar ilmiy asoslangan, eng ishonchli pedagogik o'lchovlar quroli sifatida e'tirof etilmoqda. Pedagogik testlar insoniyat tafakkuri erishgan muvaffaqiyatlardan biri bo'lib, ta'lim jarayoni samaradorligini oshiradi.

Kompyuter testi bu – kompyuterda qo'llash va qayta ishlashga mo'ljallangan istalgan testni ifodalash uchun ishlatiladigan termindir. Odatda, monitor (yoki ekran), multimedia vositalari va klaviaturani qo'llagan holatda savollar vizual tarzda yoki multimedia vositalari orqali taqdim etiladi. Sinovdan o'tuvchi o'zining javobini klaviatura orqali yozadi va mazkur javoblar kompyuterda qayd qilinadi hamda tahlil qilinadi.

Kompyuter testlari bu – sinaluvchi va EHM orasidagi suhbat (dialog) shaklidagi test olishning avtomatik ko'rinishidir. Test topshiriqlari displey ekrani orqali taqdim qili-

nadi. Sinaluvchining javoblari esa klaviatura yordamida elektron hisoblash mashinasi xotirasiga kiritiladi. Shu tariqa ayni vaqtda test natijasi bo'yicha jamlangan ma'lumotlar fayli kompyuter xotirasida hosil qilinadi. Bu esa, olingan natijalarni matematik statistik tarzda qayta ishlashni juda tez amalga oshirish imkonini beradi. Olingan natijalarni grafik, jadval yoki diagramma ko'rinishida qo'lga kiritish mumkin.

Kompyuter testlarini yaratish uchun maxsus qo'shimcha dasturiy ta'minot zarur bo'ladi. Ta'lim jarayoniga Web texnologiyalarni kiritish va undan samarali foydalanish uslublaridan biri – www.Google.ru tarmog'i taklif etgan xizmatlardan foydalanib, ya'ni Web 2.0 texnologiyasi yordamida kompyuter testlarni yaratish. Quyida biz Google xizmatlaridan foydalangan holda kompyuter testlarini yaratish va undan foydalanishga to'xtalib o'tamiz.

Internet brauzeri yordamida www.Google.ru veb sahifasiga kiriladi. Sahifa yuklangandan so'ng, brauzerda sayt taklif qiladigan xizmatlar ro'yxatidan – **Почта** xizmati tanlanadi. Agar shaxsiy akkaunt yaratilmagan bo'lsa, hosil bo'lgan sahifadagi **СОЗДАЙТЕ АККАУНТ** tugmasi yordamida shaxsiy akkaunt yaratish anketasi hosil qilinadi va anketa savollariga javob kiritiladi. Anketa savollariga to'liq va muvaffaqiyatli javob berilishi natijasida shaxsiy akkaunt yaratiladi. Shaxsiy login va parol kiritilgandan so'ng maxsus ko'rinishdagi sahifa hosil bo'ladi.

Ещё tugmasi yordamida "Veb-poisk", "Perevodchik", "Novosti", "Opovisheniya", "Gruppi", "Poisk kartinok", "Dokumenti" kabi xizmatlar ro'yxati shakllantiriladi:

Oynada Google tomonidan tavsiya etilgan xizmatlar ro'yxatidan ushbu –



Документы


Создавайте и публикуйте собственные документы, презентации и электронные таблицы в Интернете

xizmat turi tanlanadi. Yaratilayotgan hujjatlarni saqlash maqsadida Google Disk xizmatidan foydalaniladi. Quyidagi sahifa orqali Google Disk yaratiladi:

Добро пожаловать в Диск Google!

Чтобы начать работу, установите Диск Google на ПК. Затем добавьте файлы в папку Диска Google на компьютере, и они автоматически будут синхронизированы с разделом **Мой диск**.

Установить Диск Google для ПК



Доступ откуда угодно

Работайте с Диском Google откуда угодно, выполнив вход в свой аккаунт на drive.google.com или используя мобильное приложение.




Совместный доступ и соавторы

Полностью управляйте настройками доступа к файлам, папкам и Документам Google для соавторов.



1-rasm. Google Disk yaratish sahifasi

Ushbu sahifadagi **Установить Диск Google для ПК** tugmasi yordamida yaratiladigan hujjatlarni saqlash uchun Google Disk yaratiladi. Maxsus dastur kompyuter xotirasiga yuklanadi, o'rnatiladi, natijada esa shaxsiy kompyuterda  yorlig'i hosil bo'ladi.

Web sahifaning o'ng tomonida joylashgan **СОЗДАТЬ** tugmasi yordamida "Papka", "Dokumenti", "Prezentatsiya", "Forma" va "Risunok" hujjat turlarini ko'rish mumkin.

Forma yaratish uchun ro'yxatdan **Форма** tanlanadi. Sahifadagi **Начать работу** tugmasi bosilib, yaratiladigan forma uchun nom beriladi, keltirilgan mavzulardan birortasi tanlanadi va OK tugmasi bosiladi.

Avvalo, test sinovini bajaruvchi talabaning ma'lumotlarini kirituvchi "Savolnoma" formasini yaratish kerak. Buning uchun 2-rasmda ko'rsatilgan tartibda forma jihozlanadi:

Страница 1 из 1

Forma uchun nom kiritiladi.

1-test sinovi.

Описание формы

Savol kiritiladi

Вопрос

Исми sharifingiz

Izoh yoziladi

Пояснение

Masalan: Jamolova Sabohat

Тип вопроса

Текст

Savol yoki javob turi tanlanadi

Ответ

Javob shu sohaga kiritiladi

Formani o'chirish

Formadan nusxa olish

Formani tahrirlash tugmasi

Готово

☒ Сделать этот вопрос обязательным

2-rasm. Forma yaratish va uni tahrirlash sahifasi

Kiritilgan ma'lumotlarni o'zlashtirish uchun **Готова** tugmasi tanlanadi.

"Savolnoma" uchun yana qator qo'shish uchun **Добавить элемент** tugmasi bosiladi.

Добавить элемент tugmasi yordamida test savollari kiritiladi.

Вопрос

Yo'nalishingiz, guruhingiz

Пояснение

Quyidagi ro'yxatdan tanlang

Тип вопроса

Выпадающий список

☐ Перейти на страницу ответа

1. Ю'М, 101 x

2. Ю'М, 201 x

3. МО'М, 301 x

4. МО'М, 302 x

5. МО'М, 303 x

6. МО'М, 304 x

Нажмите, чтобы добавить вариант

Готово


☒ Сделать этот вопрос обязательным

3-rasm. "Savolnoma"ga qo'shimcha qator qo'shish sahifasi

Test sinovini qayta to'ldirish, test sinovi javoblarini e'lon qilish, qaytadan test javoblarini o'zgartirish kabi parametrlarni o'rnatish uchun **Изменить подтверждение** bo'limidan zarur parametrlar tanlanib, **Отправить** tugmasi bosiladi.




Namuna sifatida 5 ta savoldan iborat test yaratildi. Quyida testdan namuna keltiramiz. Bu test sinoviga quyidagi havola orqali kirish mumkin:

https://docs.google.com/forms/d/126eiAJKj9_5etDHSAuY68U0L9DeNI55aFxFjTETCAGUw/viewform



4-rasm. Test sinovi tahlillari

Test javoblari bankini saqlash va nazorat qilish uchun **Отправить** tugmasi orqali shakllantirilgan oynaga akkaunt manzili kiritiladi va **Отправить** tugmasi tanlanadi.

Test sinovini ijtimoiy tarmoqlar orqali e'lon qilish uchun ushbu , ,  belgilardan biri tanlanadi va e'lon qilinadi. E'lon qilingan test sinoviga berilgan javoblar quyidagi ko'rinishda Gmail.com pochta qutisiga kelib tushadi.

1-Test sinovi. (Ответы) ☆

Файл Правка Вид Вставка Формат Данные Инструменты Форма Справка Все изменения на Диске сохранены

fx								
	A	B	C	D	E	F	G	H
1	Отметка времени	Ismi sharifingiz	Yo'nalishingiz, guruhingiz	1. Algoritmnin ifodalanish shakllari to'liq ko'rsatilgan javobni aniqlang?	2. Quyidagilardan to'g'ri yozilgan kiritish operatorini aniqlang?	3. Paskal algoritmik tilining sikl operatorini ko'rsating?	4. Mantiqiy ifoda qanday qiymatlar qabul qiladi?	5. Quyidagilardan to'g'ri yozilgan sikl operatorini ko'rsating?
2	08.02.2013 19:30:00	Kamalov Aziz	IO'M, 101	matn, blok-sxema, dastur	read (a, b, c);	for i:=m to n do s;	rost, yolg'on	1,2,4
3	08.02.2013 19:38:21	Xalilova Sabohat	IO'M, 201	matn, blok-sxema, dastur	read (a, b, c);	for i:=m to n do s;	rost, yolg'on	1,2
4								

5-rasm. Test sinoviga berilgan javoblar

Web 2.0 texnologiyasi asosida bilimlarni baholash uchun test-nazorat tizimini va ko'nikmalarni baholash uchun dastur bajarilishini testlovchi avtomatlashtirilgan tizimning dasturiy ta'minotini ishlab chiqish orqali pedagog quyidagi samarali natijalarga ega bo'lishi mumkin:

– barcha talabalarga vaqt hisobida ham, test savollarini tanlash hisobida ham teng sharoit yaratiladi;

– ma'lum vaqt ichida ham o'quvchilarning keng doirasini, ham mavzuning to'liq mazmunini qamrab olish mumkin;

- imtihon oluvchi va topshiruvchi o'rtasida subyektiv fikrni yo'qqa chiqaradi;
- tekshirishga vaqt va kuch sarflash kamayadi, shu bilan birga o'qituvchi va talaba ustida nazoratni yengillashtiradi;
- test javoblariga mashina tomonidan tezda statik tahlil qilish imkoniyatiga ega bo'ladi, chunki savol va javoblar standart shaklga ega.

Umuman, ta'lim tizimida fanlarni o'qitishda multimediya vositalari va Web-texnologiyalarni joriy qilish, fanga kiritilayotgan yangi ma'lumotlarni tezkorlik bilan o'quv jarayoniga kiritish yuqori samaradorlikni ta'minlaydi. Bundan tashqari o'quv jarayonini virtuallashtirish, onlaynlashtirish bilim oluvchi uchun keng imkoniyatlar yaratadi, olinayotgan bilimlar yaxlitligini, tezkorligini ta'minlaydi. Shuningdek, virtual o'rganilayotgan mavzu doirasidagi qo'shimcha ma'lumotlarni tezkorlik bilan olish imkoniyatlari yaratiladi. Demak, ta'lim jarayonlarida Web texnologiyalarni kiritish usullari va ulardan samarali foydalanish uslublarini tadqiq etish, ularning dasturiy ta'minotlarini yaratish, dolzarb masalalar turkumiga kiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Karimov A.A. va boshqalar. *Uzluksiz ta'lim tizimi uchun o'quv adabiyotlarining yangi avlodini yaratish konsepsiyasi*. – T.: "Sharq", 2002. – 16 b.
2. Юлдашев У.Ю., Закирова Ф.М. *Методика преподавания информатики. Учебник для студентов педагогических вузов*. – T.: ZAR Qalam, 2005. –С. 154.
3. <http://yandex.ru/yandsearch?stype=first&clid=46511&text=web+2.0&lr=192>